



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Шавкат Собирович Олтаев Ўзини-ўзи банд қилишда заиф бандликдан унумли бандликка ўтишнинг инновацион йўллари	84
Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова Камбағалликни қисқартиришда ижтимоий хизматларнинг ўрни	88
Farruh Shadiyrovich Shanazarov Essence and content of the concept of poverty	92
Sunnatillo Bakhriddin o‘g‘li Iskandarov Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va funksiyalari	95
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Анвар Нематович Холикулов Хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини аниқлаш йўллари	99
Komoliddin Jurabayevich Matkarimov, Adxamjan Akbarovich Urinov Transport xizmatlari eksportini modellashtirish va bashoratlash masalalari	103
Shohsanam Nuritdinovna Niyozova Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo‘llari	107
Dilshod Sultanovich Musinov Xizmat ko‘rsatish sohasida investitsion loyihalar samaradorligini oshirish yo‘llari	112
Aziza Tolibovna Raxmonova Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligi	117
Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy aloqa xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyatlari	123
Нигина Бахтиёрвна Рузиева Изучение инновационного развития сферы услуг в зарубежных странах	127
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov Jozibador turistik destinatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili	130
Malika Axmad qizi Qurbonova Turizm va mehmonxona xizmatlarining aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik darajasi va uning iqtisodiy barqarorligiga ta‘siri	135
Abduvoxid Quldoshevich To‘rayev Turizmدا hududlar salohiyatidan oqilona foydalanishning nazariy asoslari va tamoyillari	140
Ойдин Давроновна Хамракулова Зеленая экономика и экологический туризм в экономике Узбекистана	143
Шоҳижаҳон Худоёр ўғли Мухитдинов Туризм хизматлари бозорининг ишлаш механизмини оптималлаштириш жараёни	147
Матлубахон Абдиманабовна Куймуратова Туризм соҳасини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларининг назарий масалалари	152

- ракобатбардошлиги Монография. Бухоро: “Садриддин Салим Бухорий” Дурдона нашриёти, 2017, – 156 б.
5. Piperoglou, J. (1966). “Identification and Definition of Regions in Greek Tourist Planning.” Papers of the Regional Science Association, 18, 169-76.
 6. Formica S., Uysal M. Destination attractiveness based on supply and demand evaluations: An analytical framework //Journal of Travel Research. – 2006. – Т. 44. – №. 4. – С. 418-430.
 7. Pearce, D. G. (1979) Towards a geography of tourism. Annals of Tourism Research, 6 (3), pp. 245-272.
 8. Vengesai S. A conceptual model of tourism destination competitiveness and attractiveness. – 2003.
 9. Dupeyras, A. and N. MacCallum (2013), “Indicators for Measuring Competitiveness in Tourism: A Guidance Document”, OECD Tourism Papers, 2013/02, OECD Publishing. <http://dx.doi.org/10.1787/5k47t9q2t923-en>. [4.01.2017]
 10. Сафарян А. А. Территория как дестинация //Современные проблемы науки и образования. – 2015. – №. 2-2. – С. 730-730.
 11. Goeldner, C. R., Ritchie, J. R. B. (2003): Tourism: principles, practices, philosophies. Hoboken, Willey.
 12. Hartman S. Towards adaptive tourism areas? A complexity perspective to examine the conditions for adaptive capacity //Journal of Sustainable Tourism. – 2016. – Т. 24. – №. 2. – С. 299-314.

<p>С.Бобокалонов</p> <p>Содержание и сущность понятия привлекательности туристического направления, сравнительный анализ научных и теоретических подходов</p> <p>Аннотация. В данной статье проведен сравнительный анализ с целью определения сущности понятий туристическая территория и дестинация, выявлены различия и сходства. С точки зрения системы экономических отношений разработано авторское определение привлекательности дестинации и определены основные направления формирования привлекательных дестинаций в условиях Узбекистана.</p> <p>Ключевые слова: туристская территория, туристская дестинация, привлекательность, устойчивое развитие, система экономических отношений, государственно-частное партнерство, взаимовыгодная конкуренция.</p>	<p>S.Bobokalonov</p> <p>Content and essence of the concept of a tourist destination attractiveness, comparative analysis of scientific and theoretical approaches</p> <p>Abstract. In this article, a comparative analysis was conducted in order to determine the essence of the concepts of tourist area and destination, differences and commonalities were identified. From the point of view of the system of economic relations, an author's definition of the attractiveness of the destination was developed and the main directions of the formation of attractive destinations in the conditions of Uzbekistan were defined.</p> <p>Keywords: tourist area, tourist destination, attractiveness, sustainable development, system of economic relations, public-private partnership, mutually beneficial competition.</p>
---	--

Malika Axmad qizi Qurbonova – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrası 2-bosqich doktoranti

TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINING AYLANMA MABLAG‘LAR BILAN TA‘MINLANGANLIK DARAJASI VA UNING IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA‘SIRI

<p>Аннотация. Ushbu maqolada turizm va mehmonxona xizmatlarining aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik darajasi va uning iqtisodiy barqarorligiga ta‘siri hamda aylanma mablag‘larni normalashtirish korxonaning uzluksiz ishlashini ta‘minlaydigan moddiy boylik va boshqa resurslarning minimal, lekin yetarli zaxiralarni shakllantirish, ichki zaxiralarni aniqlash, ishlab chiqarish sikli davomiyligini qisqartirish va tayyor mahsulotni tezroq sotish imkoniyatlari yoritilgan.</p> <p>Калит so‘zlar: ichki zaxiralar, aylanma mablag‘larni normalashtirish, moddiy boylik va boshqa resurslar, korxonalar faoliyatida barcha aylanma mablag‘lar, aylanma mablag‘larni boshqarish.</p>

Кирish. Turizm va mehmonxona sohasining jadal rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sektor xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va mijozlar talablarini qondirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlaydi. Biroq, xizmatlar ko‘rsatish

jarayonida aylanma mablag‘larning yetarli darajada ta‘minlanishi korxonaning moliyaviy holati va umumiy iqtisodiy muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Aylanma mablag‘lar, xususan, mehmonxona va turizm korxonalarining kundalik operatsion faoliyatini samarali boshqarish, xizmatlarni uzluksiz ravishda amalga oshirish va xizmatlar sifatini doimiy ravishda yuqori darajada saqlab turish uchun zarurdir.

Iqtisodiy barqarorlik esa korxonaning to‘lov qobiliyati, moliyaviy holatning mustahkamligi va uzoq muddatli rivojlanish salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik darajasi ushbu omillarga qanday ta‘sir ko‘rsatishi muhim ilmiy va amaliy masaladir. Ushbu maqolada turizm va mehmonxona xizmatlarining aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik darajasining ularning iqtisodiy barqarorligiga ta‘sirini tahlil qilishga e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, aylanma mablag‘larni samarali boshqarish bo‘yicha tavsiyalar va soha barqarorligini oshirish usullari ko‘rib chiqiladi.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Markaziy Osiyo allomalarining asarlarida iqtisodiyotga ta‘luqli g‘oyalar, xo‘jalik yuritish bo‘yicha fikrlar ko‘pdan ko‘p uchraydi. Ularning qatoriga Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, A.Temur, Ulug‘bek, A.Navoiy kabi mutafakkirlarning ijodlarini kiritish mumkin. “Temur tuzuklari”da iqtisodiyotga, davlatni boshqarishga oid va hozirgi zamonda ham o‘z ahamiyatini yuqotmagan iqtisodiy muammolarni hal qilish yo‘l-yo‘riqlari va qoidalarini topish mumkin. Unda davlatni tarkibiy tuzilishidan tortib, davlat byudjeti daromadlari va xarajatni shakllantirish, bajarilgan mehnatni taqdirlash, maoshlarni vaqtida to‘lash, solilarni undirish, jarimalar, in‘om–ehsonlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. N.Gregory Mankiwning asarlarida quyidagi “Bugungi kunda iqtisodiyoti yuqori darajada markazlashgan ko‘pchilik davlatlar ushbu tizimdan voz kechib bozor xo‘jaligi asoslarini yaratishga harakat qilmoqdalar. Bozor iqtisodiyotida rejalashtirish markazining qarorlari millionlab korxonalar va uy xo‘jaliklarining qarorlari bilan almashtirilmoqda. Faqat korxonalarining o‘zlari kimni ishga olishni va va nimani ishlab chiqarishni hal qiladilar. Uy xo‘jaliklari esa qaysi korxonalariga ishlashini va o‘z daromadlarini qanday ishlatishlarini hal qiladilar deb yozilgan.[2]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi asosan nazariy va empirik usullardan foydalanildi, soha mutaxassislari bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar, statistika ma‘lumotlar tahlil qilish va kuzatuvlar ostida amalga oshirildi. Shuningdek, maqolada aylanma mablag‘larni samarali boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, shunga ko‘ra turizm va mehmonxona xizmatlari sohasida iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda yordam berishi mumkin. Turizm va mehmonxona xizmatlarining aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganligi darajasi va uning iqtisodiy barqarorligiga ta‘siri bo‘yicha tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqich va usullarni o‘z ichiga olishi kerak. Tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniqlash, Tadqiqot usullari, Tadqiqot obyekti va subyekti, ma‘lumot yig‘ish, ma‘lumotlar tahlili, natijalarni taqdim etish Ushbu metodologiya tadqiqotni ilmiy va empirik asosda olib borishga yordam beradi, turizm va mehmonxonalarda xizmatlari aylanma mablag‘larini iqtisodiy barqarorlikka ta‘sirini chuqur o‘rganish imkonini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Aylanma mablag‘lar boshqaruvi mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish jarayonida uzluksizligini ta‘minlashda aylanma mablag‘dan iloji boricha kamroq foydalanishda ifodalanadi. Bu esa korxonalar aylanma mablag‘lari aylanishini barcha bosqichlariga mos ravishda minimal, lekin yetarli tarzda ratsional taqsimlanish kerakligini anglatadi. Normalashtirilmaydigan aylanma mablag‘, bu – xaridorga berib yuborilgan tayyor mahsulot yoki tovarlarni, hisob raqamidagi pul mablag‘idir. Aylanma mablag‘larni normativi aylanma mablag‘lar normasini (**AyMn**), aniqlangan ko‘rsatkichga ko‘paytirishni ko‘rsatadi hamda qoidaga ko‘ra, pul ko‘rinishida o‘lchanadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$AyMn = Zich + Ztich + Ntm$$

Bu yerda: **Zich** - ishlab chiqarilgan zaxiralarning normasi;

Ztich – tugallanmagan ishlab chiqarishning normasi;

Ntm - tayyor mahsulotning normasi.

Aylanma mablag‘larni normalashtirish ayniqsa, moddiy resursni sarflash normalari belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- ❖ normaning progressivligi va dinamikligi;
- ❖ normaning iqtisodiy va ishlab chiqarish texnikaviy jihatdan asoslanganligi;

- ❖ xom ashyo, material,elektr energiyasi,yoqilg‘i va boshqa resurslar o‘lchamini to‘g‘ri tanlash;
- ❖ chiqit va yo‘qotishlarni oldini olish;
- ❖ eskirgan normalarni qayta ko‘rib chiqish hamda ularni fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga moslashtirish.

Moddiy va boshqa resurslarning normalashtirishda bir nechta yo‘llardan foydalaniladi. Amaliyotda quyidagi usullar tez-tez uchraydi:

1. O‘tgan yillar davomida amalda sarflangan resurslar hisobotidagi ma‘lumotlarini o‘rganish va shuningdek bir necha yillar davomida ro‘y bergan pasayishlarni hisoblashga asoslanuvchi statistika-tajriba usuli.

2. Laboratoriya tajribasiga asosan yaratilgan shuningdek instrumentlar va yordamchi materiallar ishlatilishini normasini aniqlashda foydalaniladigan – laboratoriya-texnikaviy usuli.

3. Yuzaga kelgan ishlab chiqarish sharoitidan tashqari boshqa korxonalarni ilg‘or tajribalari va yutuqlarini ham hisobga olish imkonini beruvchi, moddiy resurslardan foydalanishni normalashtirish usuli hisoblanuvchi – hisob-tahliliy usuli.

Korxonada aylanma mablag‘larini normalashtirish tadbirlarini ishlab chiqarish zaxiralarini normalashtirish, hamda, tugallanmagan ishlab chiqarishni optimal kattaligi, tayyor mahsulot qoldiqlari va kelgusi davr xarajatlarining aniqlash bilan bog‘liq vazifalarni yechishga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqarish zaxiralarini normalashtirish, korxonaning uzluksiz faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar ishlab chiqarish zaxiralari normativlardan kam bo‘lsa, ishlab chiqarish jarayoni izdan chiqishi, ishchi kuchi va uskunalarni bekor turib qolishi, korxonada ishlab chiqarish va iqtisodiy ko‘rsatkichlari kamayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ishlab chiqarish zaxiralari belgilangan norma va normativdan oshib ketishiga ham yo‘l qo‘ymaslik lozim, chunki bu mablag‘ning “muzlab” qolishiga va natijada korxonada va davlatning zarar ko‘rishiga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqarish zaxiralari joriy, sug‘urta (kafolatli), tayyorlov (texnologik) va mavsumiy turlarga ajratiladi. Joriy zaxira - bu, materiallar yetkazib berish oralig‘ida ishlab chiqarishni moddiy resurs bilan ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan zaxira. Joriy zaxiralar materiallar yetkazib berish davri, oralig‘i hamda xom-ashyo va boshqa materiallarni kunlik sarflanishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi.[3]

Mavsumiy zaxiralar asosan uchta sababga ko‘ra paydo bo‘ladi: birinchidan, xom-ashyo tayyorlash mavsumiyliigi; ikkinchidan, uni iste‘mol qilish mavsumiyliigi; uchinchidan, materiallarni yetkazib berish mavsumiyliigi. Mavsumiy zaxiralar hajmi huddi joriy zaxira hajmi kabi o‘rtacha bir kunda iste‘mol qilish va mavsumiy zaxira yaratilishi lozim bo‘lgan vaqtga asosan aniqlanadi. Ishlab chiqarish zaxiralari normalashtirish, ishlab chiqarishda qo‘llaniluvchi har bir mehnat predmeti (xom ashyo va materiallar, yordamchi materiallar ...) uchun alohida amalga oshiriladi hamda bu o‘z navbatida ishlab chiqarish zaxiralarini yaratishda aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashga yordam beradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni normalashtirish. Tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘yicha aylanma mablag‘ normativlarini aniqlash korxonada faoliyatidagi eng qiyin va ko‘p mehnat talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida ishlab chiqarishning turli bosqichlari - xom-ashyoni texnik nazorat bo‘limi (TNB) tomonidan qabul qilishdan to‘y tayyor mahsulot omboriga topshirgunga qadar ishlov berilayotgan mahsulotlarni aytish mumkin. Tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘yicha aylanma mablag‘lar normativi hajmi quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi:

➤ **Ishlab chiqarish jarayoni davrida** ishlab chiqarish jarayoni qanchalik uzoq bo‘lsa, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Bu holatda aylanma mablag‘lar normativi hajmi oshadi, chunki ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi ishlab chiqarishning turli bosqichlar mablag‘lar uzoqroq muddatga bog‘lanib qoladi.

➤ **Ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi** ishlab chiqarish texnologiyasi qanchalik murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lsa, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi ortadi. Bu holatda mahsulotning ishlab chiqarilish muddati ortadi va bu aylanma mablag‘lar normativiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiladi.

➤ **Ishlab chiqarish turi va miqdori**, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va turi shuningdek tugallanmagan ishlab chiqarish normativiga ta‘sir etadi. Ko‘p turdagi mahsulotlar ishlab

chiqarilganda, bir vaqtning o‘zida ko‘plab mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bo‘ladi, bu esa aylanma mablag‘ normativini ko‘paytiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish normativi (**Nich**) hisoblashda ishlab chiqarish davri kun hisobida belgilanadi hamda bunda quyidagi formula orqali aniqlanadi :

$$\mathbf{Nich = Xk * Isd * Xo'k}$$

Bu yerda: **Xk** - o‘rtacha bir kunda ketadigan xarajatlar, so‘mda;

Isd - ishlab chiqarish davri davomiyligi, kun hisobida;

Xo‘k - xarajatlar o‘shish koeffitsienti.

Xarajatlar o‘shish koeffitsienti (**Xo‘k**) asosiy material (**Ma**) to‘liq qiymatda olinuvchi kattalik sifatida hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajati (**Xich**) butun ishlab chiqarish sikli mobaynida bir xil darajada o‘shib boradi hamda 50% qiymatda hisobga olinishi kerak: $Xo'k = (Ma + 0,5 Xich) : Nt$ bu yerda: **Nt** - mahsulot birligini rejadagi tannarxi.

Keyingi xarajat (**Xich**) bir xil tarzda o‘zgarmasa, u holda o‘shish koeffitsiyenti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\mathbf{Xo'k = (Ma + k \cdot Myt + k \cdot Qb + 0,5 Xich) : Nt}$$

Bu yerda: **k**, **k** – yarim tayyor mahsulot va butlovchi qismlarni mos ravishda kamaytiruvchi koeffitsiyenti;

Myt - yarim tayyor mahsulot narxi;

Qb - butlovchi qism narxi.

Pasaytiruvchi koeffitsientlar yarim tayyor mahsulot va butlovchi qismga ishlov berilgan kunlarni ishlab chiqarish davri davomiyligiga nisbatini aniqlanadi.

Aylanma mablag‘lar tayyor mahsulotga aylanish normativ miqdori, o‘rtacha bir kunda ishlab chiqarilgan mahsulotni (tannarxi bo‘yicha) aylanma mablag‘lar kunlarda tayyor mahsulot normasi sifatida, ya‘ni tayyor mahsulotni korxonada omborida saqlanish muddati sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{Ntm = Mrtn / Kk * Tamn}$$

Bu yerda: **Ntm** – tayyor bo‘lgan mahsulot normativi;

Mrtn - rejalashtirilgan davrda rejadagi narx bo‘yicha tayyorlangan mahsulot;

Tamn – tayyor mahsulotlarga aylanma mablag‘lar zaxiralar normasi, kunlar kesimida;

Kk - reja muddatidagi kalendar kunlar hisobi.

Tayyor mahsulotni omborda saqlash muddati tayyor mahsulot transportirovka qilish va sotishga aloqador bo‘ladi. Aylanma mablag‘lar ushbu normadagi kun soni mahsulotni tayyorlash, yuklash, hujjatlarni tayyorlash va ularni bankka topshirish uchun kerak bo‘lgan kunlarda iborat bo‘ladi. Kelgusi davr xarajatlarni normalashtiradi.[4]

Aylanma mablag‘larning normativi — bu moddiy boyliklar zaxiralarining puldagi ifodasidir. Aylanma mablag‘larning har bir elementi bo‘yicha normativlar har yili yangilanib turiladi. Ishlab chiqarish zaxiralari bo‘yicha barcha yakka normativlarning yig‘indisi korxonada aylanma mablag‘larining umumiy normativini tashkil etadi.

Iqtisodiy salohiyati va uning tarkibiy elementlarini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda mehmonxonada xizmatlari bozorida raqobat darajasi o'sib borayotgan tarmoq bo'lgan mehmonxonada sanoatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Resurslar salohiyatini yaxshilashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan biznes quyidagilarni ko'rsatiladi:

➤ Moliyaviy resurslar: Har qanday biznesda muvaffaqiyatning kaliti bu moliyaviy resurslarning borligidir. Bu investitsiya, kredit, va aylanma mablag‘lardan samarali boshqaruvni o‘z ichiga oladi.

➤ Inson resurslari: Biznesning rivojlanishi va resurs salohiyatini oshirish uchun malakali va tajribali kadrlar muhim omildir. Kadrlarni o‘qitish, rivojlantirish va ularni to‘g‘ri boshqarish biznes muvaffaqiyatining asosidir.

➤ Texnologik resurslar: Innovatsiyalarni joriy etish va ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biznes yangi texnologiyalarga sarmoya kiritishi va ularni doimiy ravishda yangilab turishi kerak.

➤ Material resurslar: Ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xom-ashyo, uskuna, bino-inshoot va boshqa moddiy resurslar biznesni samarali ishlashi uchun eng muhim vositalardir. Bu

resurslarni oqilona boshqarish va ulardan samarali foydalanish zarur.

➤ Axborot resurslari: Bozor ma’lumotlari, mijozlar ehtiyojlari va raqobatchilar haqida axborotlarga ega bo’lish strategik qarorlarni to’g’ri qabul qilishda yordam beradi. Biznes axborot resurslariga sarmoya kiritib, ularni tahlil qilish orqali raqobat ustunligiga erishadi.

Xulosa va takliflar. Turizm va mehmonxona xizmatlarining aylanma mablag’lar ta’minlanganlik darajasi tarmoqlar faoliyatida iqtisodiy samaradorligi va barqarorligiga sezilarli darajada ta’sir o’tkazadi. Aylanma mablag’lar mehmonxona va turizm sohasidagi barcha operatsion xarajatlarni qoplashda muhim rol o’ynaydi, xususan, mehmonxonalarning xizmat ko’rsatish sifatini saqlash, yangi xizmatlarni joriy qilish va mijozlarni jalb qilish uchun zarurdir. Agar aylanma mablag’lar yetarli bo’lmasa, mehmonxonalar operatsion xarajatlarni qoplashda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa xizmat sifatining pasayishiga va iqtisodiy barqarorlikning buzilishiga olib kelishi mumkin. Turizm va mehmonxona sohasida aylanma mablag’larning yetarli ta’minlanganligi nafaqat xizmat ko’rsatish sifatini ko’paytirish, balki raqobatbardoshlikni saqlash va kelgusida rivojlanishni ta’minlash uchun ham zarur. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun aylanma mablag’larni samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish talab etiladi.

Aylanma mablag’larni optimallashtirish mehmonxonalar va turizm korxonalarini aylanma mablag’larni samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishi lozim. Bu strategiyalar mablag’larning o’z vaqtida aylanishini ta’minlash, to’lovlar va xarajatlarni optimallashtirishni o’z ichiga oladi. Korxonalar mehmonxonalardagi zaxiralarni oqilona boshqarish orqali aylanma mablag’lar oqimini barqarorlashtirishlari kerak. Ushbu jarayon resurslardan tejab foydalanish, sifatli xizmat ko’rsatishga alohida e’tibor qaratish va ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Iqtisodiy barqarorlikni oshirish uchun turizm va mehmonxona sohasiga investitsiyalarni jalb qilish zarur. Innovatsion xizmatlar va raqamli texnologiyalarni kiritish orqali mijozlar oqimini oshirish va daromadlarni barqaror qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Абдукаримов Б.А ва бошқалар. Оммавий овқатланиш соҳаси иктисодиёти фанидан масалалар тўплами ва услубий кўрсатмалар. Самарқанд. СамИСИ, 2012.
2. Абдукаримов Б.А., Шарипов Т.С. Умумий овқатланиш соҳаси иктисодиёти. Маърузалар матни. – Самарқанд. СамИСИ, 2010.
3. Брагина Л.А. Торговое дело: Экономика, маркетинг, организация. Учебник. М.: ИНФРА –М., 2002.
4. Qurbonova M.A. Umumiy ovqatlanish korxonalaridagi innovatsiyalar imtiyozlar va to’siqlar 94- bet XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI.
5. www.google.uz – global qidiruv tizimi.
6. www.lex.uz
7. www.mail.tdiu.uz – TDIU elektron kutubxonasi.
8. www.stat.uz – Statistika qumitasi rasmiy sayti.

<p style="text-align: right;">М.Курбонова</p> <p style="text-align: center;">Уровень обеспеченности туризма и гостиничных услуг текущими средствами и его влияние на экономическую стабильность</p> <p>Аннотация. В данной статье рассматривается степень обеспеченности туристско-гостиничных услуг оборотным капиталом и ее влияние на экономическую стабильность, а также нормализацию оборотных средств, формирование минимальных, но достаточных резервов материальных благ и других ресурсов, обеспечивающих непрерывную работу предприятия, определение внутренних резервов, возможности сокращения продолжительности производственного цикла и более быстрой реализации готовой продукции.</p> <p>Ключевые слова: внутренние резервы, нормализация оборотного капитала, материальные блага и другие ресурсы, весь оборотный капитал в деятельности предприятий, управление оборотным капиталом.</p>	<p style="text-align: right;">М.Kurbonova</p> <p style="text-align: center;">The level of provision of tourism and hotel services with current funds and its impact on economic stability</p> <p>Abstract. This article examines the degree of provision of tourism and hotel services with working capital and its impact on economic stability, as well as the normalization of working capital, the formation of minimal but sufficient reserves of material goods and other resources that ensure the continuous operation of the enterprise, the definition of internal reserves, the possibility of reducing the duration of the production cycle and faster sales of finished products.</p> <p>Keywords: internal reserves, normalization of working capital, material goods and other resources, all working capital in the activities of enterprises, working capital management.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.